

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.06/2025.27.12.Tib.02.03
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

DELKASHEVA SHAXLOXON DJAMOLITDINOVNA

**O‘PKANING SURUNKALI OBSTRUKTIV KASALLIGI SEMIZLIK
BILAN KOMORBIDLIKDA KECHGANDA BUYRAKLAR
DISFUNKSIYASI VA DAVOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH**

14.00.05 Ichki kasalliklar

**TIBBIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

ANDIJON 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Delkasheva Shaxlo Djamolitdinovna

O'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi semizlik bilan komorbidlikda
kechganda buyraklar disfunksiyasi va davolashni
takomillashtirish.....

3

Делкашева Шахлохон Джамолитдиновна

Дисфункция почек и оптимизация терапии при коморбидном течении
хронической обструктивной болезни лёгких с
ожирением.....

28

Delkasheva Shaxloxon Djamolitdinovna

Kidney disfunction and optimization of therapy in comorbidity of chronic
obstructive pulmonary disease with obesity
.....

56

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published

works.....

59

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.06/2025.27.12.Tib.02.03
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI

DELKASHEVA SHAXLOXON DJAMOLITDINOVNA

**O‘PKANING SURUNKALI OBSTRUKTIV KASALLIGI SEMIZLIK
BILAN KOMORBIDLIKDA KECHGANDA BUYRAKLAR
DISFUNKSIYASI VA DAVOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH**

14.00.05 Ichki kasalliklar

**TIBBIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

ANDIJON 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/Tib6241 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat tibbiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (O'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb sahifasida (info@adti.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yusupova Shaxnoza Kadirjanovna
tibbiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Gadayev Abdug'affar Gadayevich
tibbiyot fanlari doktori, professor

Jurayeva Moxigul Azimjanovna
tibbiyot fanlari doktori, professor

Etakchi tashkilot:

Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti

Dissertatsiya himoyasi 2026 yil "06" oktyabr soat 14³⁰ da Andijon davlat tibbiyot instituti huzuridagi DSc.04/30.11.2024.Tib.95.02 raqamli ilmiy kengash majlisida o'tkaziladi (170100, Andijon shahri, Yu.Otabekov ko'chasi, 1uy; Tel./faks: (+998) 742239450, email: info@adti.uz).

Dissertatsiya bilan Andijon davlat tibbiyot institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (109 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon shahri, Yu.Otabekov ko'chasi, 1uy; Tel.: (+998) 742239450.).

Dissertatsiya avtoreferati 2026yil "19" sentyabr kuni tarqatildi

(2026yil "19" sentyabr dagi 12 raqamli tarqatish reestri bayonnomasi).



Becceev **Z.S.Salaxiddinov**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi
o'rinbosari, tibbiyot fanlari doktori, professor

O. B. Najmitdinov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotibi, tibbiyot fanlari doktori, dotsent

Muxamedov **M.A. Xujamberdiev**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, tibbiyot fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyoda bugungi kunda komorbidlik holati amaliy tibbiyotda tobora ko'p, dolzarb va muhim muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Chunki asosiy kasallik bilan qator yondosh kasalliklar yoki ularning asoratlari birgalikda kelishi nafaqat patologik jarayonning klinik manzarasi va kechishini, balki uning og'irlik darajasini ham o'zgartiradi va turli asoratlarga yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Shunday komorbid holatlardan biri o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligini (O'SOK) semizlik bilan birga kechishi hisoblanadi¹.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, 2019 yil dunyoda 212,3 mln aholi O'SOK dan aziyat chekkanlar. Uning oqibatida 3,3 mln ga yaqin insonlar hayotdan ko'z yumganlar va nogironlik bo'yicha tuzatish kiritilib hayot davomiyligi aniqlanganda ko'rsatgich 74,4 mln ga teng bo'lgan².

Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatrya va pulmonologiya ilmiy amaliy tibbiyot markazi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimiz aholisi orasida 2021 yilga kelib birlamchi O'SOK tashxisi qo'yilganlar soni mutlaq raqamlarda 61 488 tani tashkil etgan va ulardan 41 186 nafari yoshi ulug' insonlar bo'lgan. 2022 yilga kelib bu ko'rsatkichlar mos ravishda 54 049 va 34 724 ni tashkil etgan.

Respublikamizda tibbiyot xodimlari oldida sohani, shu jumladan qontomir va yurak kasalliklari komorbidlikda kechganda ularni erta aniqlash, davolashni yanada mukammallashtirish va xalqaro standartlar talablariga moslashtirish borasida qator vazifalar qo'yilgan. «...Mamlakatimizda aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy yordamning samaradorligi, sifati va ommabopligini oshirish, shuningdek, kasalliklarni erta tashxislash va davolashning yuqori texnologik usullarini joriy qilish, patronaj xizmatini yaratish orqali, sog'lom turmush tarzini qo'llab quvvatlash va kasalliklarni oldini olish...» kabi vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirish aholi orasida SYuEda yuzaga keladigan boshqa azolardagi o'zgarishlar sabablarini va unda buyraklar disfunktsiyasini erta tashxislash, asoratlarni oldini olish va bemorlar xayot sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 iyundagi PQ3071son «O'zbekiston Respublikasi aholisiga 2017-2021 yillarda ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatishni yanada rivojlantirish choratadbirlari to'g'risidagi», 2022 yil 28 yanvardagi PF60son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 2021 yil 25 maydagi PQ 5124–son, «Sog'liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi»gi³ va 2022 yil 25 apreldagi PQ 215son "Birlamchi tibbiy–sanitariya yordamini aholiga yaqinlashtirish va tibbiy xizmatlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa

¹ Хроническая обструктивная болезнь легких. Информационный бюллетень // ВОЗ. Ноябрь 2017 г. №315

² World Health Organization. Chronic obstructive pulmonary disease (COPD). 2023

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60-сон "2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг таракқиёт стратегияси тўғрисида"ги Фармони

me'yoriyhuquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VI. «Tibbiyot va farmakologiya» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi.

2015 yilda e'lon qilingan tizimli sharh va metatahlilda 2010 yilda jahonda 384 millionga yaqin O'SOK holatlari qayd etilgan bo'lib, uning dunyo bo'ylab tarqalishi taxminan 11,7% ni tashkil qilishi ko'rsatilgan (Adeloye D, 2015). Murray va hammualliflarning ko'rsatishlaricha, jahonda har yili ushbu kasallikdan 3 millionga yaqin o'lim holatlari kuzatiladi (Murray C.J., 2015).

Respublika ixtisoslashtirilgan ftiziatriya va pulmonologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimiz aholisi orasida nafas olish a'zolari kasalliklari 2020 yilda 4 126 159 kishilarda kuzatilgan, ulardan 2 247 620 nafari yoshi katta kishilarga to'g'ri kelgan. 2021 va 2022 yillarda ushbu raqamlar mos ravishda 4 027 599 hamda 2 163 410 va 4 001 856 hamda 2 179 567 ga teng bo'lib, ozroq kamayishga moyillik qayd etilgan.

Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, 1,5 milliarddan ortiq katta yoshdagilar ortiqcha tana vazniga va kamida 500 million kishi klinik nuqtai nazardan semizlikga ega (TVI mos ravishda 25 kg/m² va 30 kg/m² dan ortiq) (Kyrou, 2021; Ambrosy, 2018). Qo'shma Shtatlarda O'SOK bilan og'rigan bemorlar orasida semizlikning tarqalishi taxminan 65% ni tashkil etgan (kuzatuvdagilarning yarmidan ko'pida TVI ≥ 30 kg/m² bo'lgan) (Bhide P., 2023).

Semizlik nafaqat nafas olish mexanikasini yomonlashtiradi, balki tizimli yallig'lanishga ham sabab bo'ladi. Shuningdek, ortiqcha tana vazniga ega bo'lgan bemorlarda O'SOKni davolash yanada murakkablashadi. Semizlik O'SOKda giperkoagulyatsiya sindromining yana bir tarkibiy qismi bo'lib, tananing barcha tizimlarining protrombotik va yallig'lanish oldi holatini ta'minlaydi. O'SOK bilan og'rigan bemorlarda IL-6 ko'rsatkichlarining oshishi uning rivojlanishi bilan parallel ravishda barqaror o'sish moyilligiga ega (Vitkina T. I., 2018; Atyakshin D. A., 2015).

Ma'lumki, yog' to'qimasi ilgari passiv yog' zaxirasi deb hisoblangan bo'lsa, ayni paytda unga gomeostazda muhim rol o'ynaydigan yirik endokrin tuzilma sifatida qaraladi (Dedov I. I., 2006). Uning endokrin faoliyati gormonlar va signal molekulalari – adipokinlarni sekrestiya qilish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Leptin va adiponektin eng ko'p o'rganilgan ikkita gormon hisoblanib, adipositlar tomonidan ishlab chiqariladi (GuerreMillo M., 2002). Yakka tadqiqotlar natijalari adiponektinning o'pkaning tiriklik sig'imi ko'rsatkichlarini yaxshilash va nafas qisilishi darajasini pasaytirish qobiliyatini ko'rsatadi (Tomoda K., 2007; Mohamed N. A., 2013).

O'pka faoliyati ko'rsatkichlarini o'rganishda BSJNChH, statik hajmlar va ko'krak qafasi komplainsining pasayishi, shuningdek, bronxial qarshilik va giperreaktivlik darajasining oshishi aniqlangan (Salome C. M., 2010; Mafort T. T.,

2016; Dixon A. E., 2018). Tang X. va hammualliflar kuzatuvlarida O'SOK xavfi bo'lgan insonlarda yengil semizlik o'pka faoliyati uchun himoya omili ekanligi qayd etilgan (Tang X., 2022). Yu D va hammualliflar tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda obstruktiv nafas olish shakllari mavjud bo'lgan bemorlarda buyrak faoliyatining pasayish xavfi yuqoriligi aniqlangan (Yu D., 2017). O'SOK bilan og'rigan bemorlarda u bo'lmagan nazorat guruhiga nisbatan o'lim xavfi (NX, 1.22) ham yuqoriligi aniqlangan (Lai C. C., 2018). Shuningdek, Chen va hammualliflar tomonidan 2324 ta bemorlarda o'tkazilgan kuzatuvda yallig'lanish semizlik keltirib chiqaradigan SBK xavfining oshishida muhim ahamiyatga ega ekanligi tasdiqlangan (Chen S., 2014).

O'zbekiston Respublikasida O'SOK va uning asoratlariga bag'ishlangan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, L.T. Daminova, D.K. Muminov va D.I. Tursunov tomonidan O'SOKning turli og'irlik bosqichlaridagi bemorlarda buyraklarning funksional holati o'rganilgan. Mualliflar tomonidan sistatin C darajasining oshishi hamda hKFTning pasayishi kasallikning progressiyasi bilan bog'liqligi va bu ko'rsatkichlar buyrak disfunktsiyasining erta markerlari ekanligi ko'rsatib berilgan (Daminova L.T., 2025). Biroq semizlikning buyrak disfunktsiyasi rivojlanishiga ta'siri, adipokinlar va yallig'lanish sitokinlarining o'rni, shuningdek ushbu toifadagi bemorlarda nefroprotektiv davolash samaradorligi yetarli darajada o'rganilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Dissertatsiya mavzusining u bajarilgan ilmiy tadqiqot muassasasi ilmiy – tadqiqot ishlari rejası bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Andijon davlat tibbiyot institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O'zbekistonning turli hududlarida yuqumsiz kasalliklarni erta aniqlash, davolash va oldini olishning ilg'or innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqish” (2020-2024 yillar) mavzusidagi № 012000273 ilmiy loyiha doirasida amalga oshirildi.

Tadqiqotning maqsadi. O'pkaning surunkali obstruktiv kasalligining turli og'irlik bosqichlari va klinik shakllari semizlik bilan komorbidlikda kechganda buyraklar disfunktsiyasi rivojlanishining klinik-patogenetik mexanizmlarini o'rganish va ularni davolashni takomillashtirish.

Tadqiqot vazifalari:

o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi turli og'irlik bosqichlari va klinik shakllari semizlik bilan kechganda buyrak disfunktsiyasini uchrash darajasi va tashqi nafas faoliyatini aniqlash;

o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi turli og'irlik bosqichlari va klinik shakllari semizlik bilan kechganda leptin, adiponektin, TNF- α va IL-6 ko'rsatkichlarini baholash;

o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi turli og'irlik bosqichlari va klinik shakllari semizlik bilan kechganda sistatin C va uning yordamida koptokchalar filtratsiyasini hamda β 2- mikroglobulin ko'rsatkichlari va ularni o'zaro bog'liqligini o'rganish;

o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi turli og'irlik bosqichlari va klinik shakllari semizlik va buyraklar disfunktsiyasi bilan kechganda tashqi nafas faoliyati hamda renal disfunktsiya markerlarini o'zaro korrelyatsion bog'liqligini aniqlash;

o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi turli og'irlik bosqichlari semizlik va buyraklar disfunktsiyasi bilan kechganda davolashni takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi semizlik bilan ($n=95$) va u siz ($n=51$) kechgan bemorlar olingan. Har ikkala guruh kasallikning og'irlik bosqichi va klinik shakliga ko'ra guruhlariga ajratilgan.

Tadqiqotning predmeti sifatida immunologik hamda biokimyoviy tahlillar uchun olingan bemorlar venoz qoni va uning zardobi.

Tadqiqot usullari. Umumklinik, asbobiy (spirografiya, elektrokardiografiya), biokimyoviy (kreatinin, sistatin-C), immunologik (leptin, adiponektin, TNF- α) IL-6, β 2-mikroglobulin) hamda statistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligining turli og'irlik bosqichlari va klinik shakllari semizlik bilan kechganda buyrak disfunktsiyasining uchrash darajasi hamda tashqi nafas faoliyati ko'rsatkichlari kompleks baholangan, buyrak disfunktsiyasi chastotasi kasallik og'irligi ortib borishi bilan ishonchli oshishi, tashqi nafas funksiyasi mos ravishda pasayib borishi ($p<0,001$) aniqlangan va ularning o'zaro bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslangan;

o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi semizlik bilan komorbid kechganda tizimli yallig'lanish adipoqinlari va sitokinlar profilidagi o'zaro bog'liq buzilishlar bilan kechishi, ya'ni leptin, TNF- α va IL-6 darajalarining ishonchli oshishi hamda adiponektin darajasining pasayishi ($p<0,001$) aniqlandi. Ushbu o'zgarishlarning kasallik og'irligi va klinik shakllari ortishi bilan yanada yaqqol namoyon bo'lishi ularning patologik jarayon progressiyasini baholovchi qo'shimcha biomarkerlar sifatidagi ahamiyatini asoslaydi;

β 2-mikroglobulinning O'SOK va semizlik bilan komorbid kechgan bemorlarda buyraklarning tubulointerstitsial shikastlanishini erta aniqlashda yuqori diagnostik sezgirlikka ega ekanligi aniqlandi;

tashqi nafas faoliyati ko'rsatkichlari bilan buyraklar disfunktsiyasi markerlari — sistatin-S va β 2-mikroglobulin o'rtasida ishonchli manfiy korrelyatsion bog'liqlik aniqlandi ($r=-0,41$ dan $-0,57$ gacha; $p<0,001$);

empagliflozinni o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi semizlik bilan komorbidlikda kechgan bemorlarga kompleks davolash tarkibiga kiritishning klinik samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi semizlik bilan komorbidlikda kechganda tashqi nafas faoliyati ko'rsatkichlari (BSJNChH, FJTS, Tiffno indeksi) hamda buyraklar disfunktsiyasi markerlari (sistatin C, β 2-mikroglobulin va hKFT) o'rtasida ishonchli korrelyatsion bog'liqlik mavjudligi aniqlandi. Ushbu natijalar buyraklar funksional holatini kasallikning erta bosqichlarida baholash imkonini beradi;

tadqiqot natijalari asosida o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi semizlik bilan komorbidlikda kechganda buyraklar disfunktsiyasini erta aniqlash algoritmi ishlab chiqildi. Mazkur algoritm xavf omillarini baholash, tashqi nafas faoliyati ko'rsatkichlari, buyrak disfunktsiyasi markerlari hamda metabolik va yallig'lanish

biomarkerlarini kompleks tahlil qilish orqali bemorlarni xavf darajasi bo'yicha stratifikatsiya qilish va individual davolash taktikasini tanlash imkonini beradi;

o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi semizlik bilan komorbidlikda kechganda kompleks standart davolash tarkibiga iSGLT2 (empagliflozin) preparatini kiritishning klinik samaradorligi isbotlandi. Preparatni, ayniqsa kasallikning II–III og'irlik bosqichlarida qo'llash buyraklar funksional holatini yaxshilashi, tizimli yallig'lanishni kamaytirishi va metabolik buzilishlarni korreksiya qilishi aniqlandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda foydalanilgan yondashuvlar va usullar, ilmiy ma'lumotlarning olingan natijalar bilan mushtarakligi, o'tkazilgan tekshiruvlarda uslubiy yondashishning monandligi, tadqiqotda jalb etilgan bemorlar sonining yetarliligi, zamonaviy statistik tekshirishlar yordamida tahlil qilinganligi, olingan natijalarni jahon va mamlakatimizdagi ma'lumotlar bilan solishtirma o'rganilganligi, olingan xulosa hamda natijalarning imtiyozli ishlanmalar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi semizlik va u siz kechgan bemorlarning birinchi guruhida tashqi nafas faoliyati bilan buyrak disfunktsiyasi markerlari o'rtasida ishonchli korrelyatsion bog'liqliklar mavjudligi isbotlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalar asosida shakllangan tavsiyalarni amaliyotga tadbiiq etilishi o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi semizlik bilan kechgan bemorlarda empagliflozin preparatini tavsiya etish buyrak disfunktsiyasini regressiyaga olib kelishi va ushbu guruh vositalarining samaradorligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

O'SOK bilan og'rigan bemorlarni o'z vaqtida tashxislash bo'yicha olingan natijalar sog'liqni saqlash amaliyotiga joriy etildi:

birinchi ilmiy yangilik: o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligining turli og'irlik bosqichlari va klinik shakllari semizlik bilan kechganda buyrak disfunktsiyasining uchrash darajasi hamda tashqi nafas faoliyati ko'rsatkichlari kompleks baholangan, buyrak disfunktsiyasi chastotasi kasallik og'irligi ortib borishi bilan ishonchli oshishi, tashqi nafas funksiyasi esa mos ravishda pasayib borishi ($p < 0,001$) aniqlangan va ularning o'zaro bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslanganligi Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Namangan filialining 2026-yil 2-fevraldagi №25/17-son va Akademik Yo.X. To'raqulov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Farg'ona filialining 2026-yil 23-fevraldagi №36-son buyruqlari bilan amaliyotga joriy etilgan.

Ijtimoiy samaradorligi: O'SOK semizlik bilan komorbid kechgan bemorlarda buyrak disfunktsiyasini erta aniqlash, xavf guruhlarini shakllantirish hamda surunkali buyrak kasalligi rivojlanishining oldini olish imkoniyati yaratildi.

Iqtisodiy samaradorligi: terminal bosqichdagi O'SOK va SBK bilan kasallangan bemorda bir martalik gemodializ seansining ambulator davolash sharoitidagi qiymati 373

ming so'mni, yiliga 156 ta gemodializ seansi o'tkazilganda esa umumiy xarajat taxminan 58,19 mln so'mni tashkil etadi. Buyrak disfunktsiyasini erta aniqlash va o'z vaqtida davolash natijasida og'ir asoratlar rivojlanishining oldini olish, shuningdek, terminal bosqichdagi bemorlarda gemodializga bo'lgan ehtiyojni kamaytirish imkoniyati yaratildi. Bunda yiliga 96 ta gemodializ seansi uchun sarflanadigan mablag' 35,19 mln so'mni tashkil etib, natijada har bir bemor hisobiga yiliga 22,38 mln so'mgacha mablag'ni tejash imkoniyati yaratildi;

ikkinchi ilmiy yangilik: O'SOK semizlik bilan komorbid kechganda leptin, TNF- α va IL-6 darajalarining oshishi hamda adiponektin darajasining pasayishi kasallik progressiyasining qo'shimcha biomarkerlari ekanligi asoslanganligi Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Namangan filialining 2026-yil 2-fevraldagi №25/17-son va Akademik Yo.X. To'raqulov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Farg'ona filialining 2026-yil 23-fevraldagi №36-son buyruqlari bilan amaliyotga joriy etilgan. *Ijtimoiy samaradorligi:* Adipokinlar va yallig'lanish sitokinlarini kompleks baholash kasallik og'irligi hamda buyrak disfunktsiyasi rivojlanish xavfini erta aniqlash imkonini berdi. *Iqtisodiy samaradorligi:* kasallik og'irlik darajasini erta baholash va asoratlarning oldini olish natijasida statsionar davolanish xarajatlarini kamaytirish imkoniyati yaratildi. Asoratlanmagan O'SOK bilan og'rigan bemorni statsionar sharoitda davolashning o'rtacha bir kunlik qiymati 900 ming so'mni, 10 kunlik davolash xarajati esa 9 mln so'mni tashkil etadi. Kasallik asoratlar bilan kechganda bir kunlik davolash xarajati o'rtacha 1,5 mln so'mgacha, 10 kunlik davolash xarajati esa 15 mln so'mgacha oshadi. Natijada kasallikning og'irlik darajasini erta aniqlash va tegishli davolash choralarini o'z vaqtida qo'llash orqali o'rtacha 10 kunlik statsionar davolanish davomida har bir bemor uchun 6 mln so'mgacha mablag'ni tejash imkoniyati yaratildi.;

uchinchi ilmiy yangilik: β 2-mikroglobulinning O'SOK va semizlik bilan komorbid kechgan bemorlarda buyraklarning tubulointerstitsial shikastlanishini erta aniqlashda yuqori diagnostik sezgirlikka ega ekanligi aniqlanganligi Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Namangan filialining 2026-yil 2-fevraldagi №25/17-son va Akademik Yo.X. To'raqulov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Farg'ona filialining 2026-yil 23-fevraldagi №36-son buyruqlari bilan amaliyotga joriy etilgan. *Ijtimoiy samaradorligi:* β 2-mikroglobulinni aniqlash orqali buyrak shikastlanishini kreatinin va hisoblangan koptokchalar filtratsiyasi tezligidagi o'zgarishlar kuzatilishidan oldin aniqlash imkoniyati yaratildi. *Iqtisodiy samaradorligi:* O'SOK asoratsiz kechgan bemorni shifoxona sharoitida davolashning o'rtacha bir kunlik qiymati 900 ming so'mni, 10 kunlik davolash xarajati 9 mln so'mni tashkil etadi. Kasallik asoratlar bilan kechganda esa bir kunlik davolash xarajati o'rtacha 1,5 mln so'mgacha, 10 kunlik davolash xarajati 15 mln so'mgacha oshadi. O'SOKda игнкфлджквф tubulointerstitsial shikastlanishini erta aniqlash va o'z vaqtida davolash orqali asoratlar rivojlanishini kamaytirish hamda statsionar davolanish xarajatlarini qisqartirish natijasida 10 kunlik davolash davrida har bir bemor uchun o'rtacha 6 mln so'mgacha mablag'ni tejash imkoniyati yaratildi;

to'rtinchi ilmiy yangilik: tashqi nafas faoliyati ko'rsatkichlari bilan buyraklar disfunktsiyasi markerlari — sistatin-S va β 2-mikroglobulin o'rtasida ishonchli manfiy korrelyatsion bog'liqlik aniqlanganligi Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Namangan filialining 2026-yil 2-fevraldagi №25/17-son va Akademik Yo.X. To'raqulov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Farg'ona filialining 2026-yil 23-fevraldagi №36-son buyruqlari bilan amaliyotga joriy etilgan. *Ijtimoiy samaradorligi:* Buyrak disfunktsiyasi markerlari va tashqi nafas faoliyati ko'rsatkichlarini kompleks baholash O'SOK semizlik bilan komorbid kechgan bemorlarda kasallikning progressiyasini hamda nefropatiya rivojlanish xavfini erta prognoz qilish imkonini berdi. *Iqtisodiy samaradorligi:* mazkur yondashuvni amaliyotga joriy etish natijasida bemorlarni har chorakda emas, balki yiliga bir marta monitoringdan o'tkazish imkoniyati yaratildi. Monitoringning yillik xarajati 500 ming so'mni tashkil etadi. Avvalgi yondashuvda bemorlar har chorakda bir marta monitoringdan o'tkazilib, har bir monitoring uchun 500 ming so'mdan, yiliga jami 2,0 mln so'm mablag' sarflangan. Mazkur yondashuv natijasida monitoring chastotasining kamaytirilishi hisobiga har bir bemor uchun yiliga 1,5 mln so'mgacha mablag'ni tejash imkoniyati yaratildi;

beshinchil ilmiy yangilik: empagliflozinni o'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi semizlik bilan komorbidlikda kechgan bemorlar kompleks davolash tarkibiga kiritishning klinik samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berilganligi Respublika shoshilinch tibbiy yordam ilmiy markazi Namangan filialining 2026-yil 2-fevraldagi №25/17-son va Akademik Yo.X. To'raqulov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Farg'ona filialining 2026-yil 23-fevraldagi №36-son buyruqlari bilan amaliyotga joriy etilgan. *Ijtimoiy samaradorligi:* Empagliflozinni kompleks davolash tarkibiga kiritish natijasida tashqi nafas faoliyati va buyraklarning funksional holati yaxshilanib, tizimli yallig'lanish hamda metabolik buzilishlar kamayishiga erishildi. *Iqtisodiy samaradorligi:* davolash samaradorligi oshishi natijasida O'SOK bilan kasallangan bemorlarning statsionarda davolanish muddati 10 kundan 7 kungacha qisqartirildi. O'SOK asoratsiz kechganda bir kunlik davolash xarajati 900 ming so'm, 10 kunlik - 9 mln so'mni, asoratlar bilan kechganda esa mos ravishda 1,5 mln va 15 mln so'mni tashkil etadi. Davolash muddatining 7 kungacha qisqarishi natijasida O'SOK asoratsiz kechganda bir bemor uchun xarajat 6,3 mln so'mni tashkil etib, 2,7 mln so'mgacha mablag' tejash imkoniyati yaratildi. O'SOK asoratlar bilan kechganda esa 10 kunlik davolash davomida bir bemor uchun xarajat 7,5 mln so'mni tashkil etib, 6 mln so'mgacha mablag' tejashga erishildi.

Tadqiqot natijalari asosida ushbu kogortadagi shaxslarning salomatlik holatini yaxshilash, davolash va erta profilaktika choralarini ko'rish maqsadida "O'pkaning surunkali obstruktiv kasalligining turli bosqichlarida β 2-mikroglobulinni baholashni joriy etish va uning prognostik roli" uslubiy tavsiyanomasi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy yetildi.

Tadqiqot natijalarining aprobastiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy anjumanlarda, jumladan 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish nashr qilingan bo'lib, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan nashrlarda 5 ta jurnal maqolasi, jumladan 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, amaliy tavsiyalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotning dolzarbligi va ushbu ishga talab asoslab berilgan, uning maqsadi, vazifalari, obyekti hamda predmeti tavsiflangan, mazkur tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustivor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi, olingan natijalarning ilmiy hamda amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga tadbiiq etilishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Adabiyotlar sharxi**» deb nomlangan birinchi bobi to'rtta paragrafdan iborat bo'lib ularda adabiyotlar tahlili keltirilgan. Muammoning zamonaviy holati bo'yicha so'nggi yillarda mahalliy va ingliz jurnallarida chop etilgan ma'lumotlar tahlil qilingan. Ularda O'SOK tarqalishi hamda ushbu guruh bemorlarda semizlik komorbidlikda kechishida buyraklarda va tashqi nafas faoliyati ko'rsatkichlarida yuzaga keladigan o'zgarishlar keltirilgan. Bu bobda adabiyotlardagi ma'lumotlar umumlashtirilgan va muammoning dolzarbligi asoslangan.

Dissertatsiyaning «**Material va usullar**» deb nomlangan ikkinchi bobida obyekt, predmetlar va tadqiqot hamda unda qo'llanilgan statistik usullar keltirilgan.

Ushbu ilmiy tadqiqot ishi 2024 va 2025 yillarda Andijon davlat tibbiyot instituti klinikasining terapiya bo'limida davolangan, O'SOK semizlik bilan komorbidlikda kechgan bemorlarda olib borildi. Oldimizga qo'yilgan vazifalarning echimini bajarish maqsadida ilmiy tadqiqot ishi quyidagicha amalga oshirildi.

Tadqiqotga O'SOK ni turli og'irlik bosqichlari va klinik shakllari semizlik bilan komorbidlikda kechgan 95 nafar bemorlar (asosiy guruh) jalb etildi. Shu o'rinda O'SOK ning III va IV og'irlik bosqichidagi guruh bemorlarda koptokchalar filtratsiyasi tezligi (KFT) $60 \text{ ml/daq/1,73 m}^2$ dan past ekanligi aniqlandi. Biz kuzatuvimizda asosiy e'tiborni O'SOK semizlik bilan kechgan bemorlarda oldimizga qo'yilgan maqsaddan kelib chiqib, $\beta 2$ mikroglobulin KFT ko'rsatkichi, sistatin-C larning buyraklar disfunktsiyasi rivojlanishidagi ahamiyatiga qaratdik. Shu bilan bir qatorda yuqorida keltirilgan markerlarni ayrim tashqi nafas faoliyati ko'rsatkichlari va semizlik markerlarini ham o'rgandik. Solishtirma nazorat guruhi sifatida O'SOK semizliksiz kechgan 51 ta bemorlar olindi. Barcha kuzatuvdagilar

o'z navbatida O'SOK bo'yicha global tashabbus (Global Initiative for Chronic Obstructive Lung Disease – GOLD 2024) tomonidan tavsiya etilgan tasnifga mos ravishda mavjud 4 ta darajadan uchtagacha ajratildi. Kasallikning I og'irlik darajasi shifoxonalarda davolanishga muxtoj bo'lmaganligi sababli kuzatuvga II IV darajadagi bemorlar olindi.

Asosiy guruhda O'SOK ning II darajasi aniqlangan bemorlarning soni 11 ta bo'lib (o'rtacha $60,0 \pm 5,8$ yosh), ulardan 8 nafari ayol va 3 tasi erkaklarni tashkil qildi. Nazorat guruhi 10 ta bemordan iborat bo'lib (o'rtacha $55,6 \pm 5,8$ yosh), 4 ta ayol va 6 ta erkaklar jalb etildi. Asosiy guruhda O'SOK ning III darajasi mavjud 39 nafar bemordan (o'rtacha $63,2 \pm 1,8$ yosh) 25 nafari ayol va 14 tasi erkaklarni tashkil qildi. Ushbu darajadagi nazorat guruhiga jalb qilingan 13 nafar bemorlar (o'rtacha $52,1 \pm 3,3$ yosh) 9 tasi ayol va 4 tasi erkakdan iborat bo'ldi. Semizlik bilan komorbidlikda kechgan O'SOK ning IV darajasi mavjud bemorlarning soni 45 ta bo'lib (o'rtacha $63,9 \pm 1,3$ yosh), ulardan 21 nafari ayol va 24 tasi erkaklarni tashkil qildi. Nazorat guruhi 28 ta bemordan iborat bo'lib (o'rtacha $54,9 \pm 3,03$ yosh), 5 ta ayol va 23 ta erkaklar jalb etildi.

Yuqoridagi bilan bir qatorda bemorlar O'SOK ning klinik shakllari bo'yicha ham guruhlariga ajratildilar. Asosiy guruhda O'SOK ning bronxitik shakli aniqlangan bemorlarning soni 66 ta bo'lib (o'rtacha $62,7 \pm 1,1$ yosh), ulardan 34 nafari ayol va 32 tasi erkaklarni tashkil qildi. Nazorat guruhi 22 ta bemordan iborat bo'lib (o'rtacha $56,0 \pm 3,4$ yosh), 6 ta ayol va 16 ta erkaklar jalb etildi. Asosiy guruhda O'SOK ning emfizematoz klinik shakli mavjud 11 nafar bemordan (o'rtacha $71,0 \pm 2,05$ yosh) 5 nafari ayol va 6 tasi erkaklarni tashkil qildi. Ushbu klinik shakldagi nazorat guruhiga jalb qilingan 11 nafar bemorlar (o'rtacha $60,2 \pm 5,2$ yosh) 1 tasi ayol va 10 tasi erkakdan iborat bo'ldi. Semizlik bilan komorbidlikda kechgan O'SOK ning aralash shakli mavjud bemorlarning soni 18 ga teng bo'lib (o'rtacha $63,7 \pm 2,9$ yosh), ulardan 14 nafari ayol va 4 tasi erkaklarni tashkil qildi. Nazorat guruhi 18 ta bemordan iborat bo'lib (o'rtacha $51,1 \pm 3,9$ yosh), 7 ta ayol va 11 ta erkaklar jalb etildi.

Barcha bemorlarda ularning shikoyatlari, hayot anamnezi va umumiy klinik holati va umumqabul qilingan laborator-asbobiy tekshiruvlar o'tkazildi. Maxsus tekshiruvlar qon zardobidagi sistatin C, TNF- α , IL6 hamda $\beta 2$ mikroglobulin darajisini o'rganishdan iborat bo'ldi. Tadqiqot davomida bemorlarda tashqi nafas va buyrak faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar dinamikasi qo'shimcha ravishda baholandi.

Raqam ko'rsatkichlarini statistik tahlili: Tadqiqotda olingan ma'lumotlarga statistik ishlov berishda SPSS 18.0 (SPSS Inc., Chicago, IL) kompyuter dasturidan foydalanildi. Jadvallarda keltirilgan barcha ko'rsatkichlarning o'rtacha arifmetik va standart og'ishlari ($M \pm m$) hisoblanildi. Kategorial o'zgaruvchilar son sifatida ko'rsatilgan (foizlarda). Parametrik bo'lmagan statistika shunga muvofiq amalga oshirildi. Guruhlar o'rtasida taqqoslashlar Kruskal-Uollis ning U me'zon yoki Mann-Uitni testi yordamida doimiy o'zgaruvchilar va toifali o'zgaruvchanlar uchun Xi kvadrat yoki Fisher testi qo'llanildi. Korrelyatsion tahlil Pirson koeffitsientidan va uning ahamiyati ishonchlilik jadvallaridan foydalanib aniqlandi.

Dissertatsiyaning “O‘pkaning surunkali obstruktiv kasalligining turli darajalari hamda klinik shakllari semizlik bilan va usiz kechgan bemorlardagi shikoyatlar, tashqi nafas faoliyati va laborator ko‘rsatkichlarning solishtirma taxlili” deb nomlangan uchinchi bobida kuzatuvimizdagi bemorlar guruhlarida aniqlangan shikoyatlar, asbobiy va laborator tekshiruvlar ko‘rsatkichlari tahlili O‘SOK ning turli og‘irlik darajalari va klinik shakllari kesimida keltirilgan. Uning birinchi paragrafidagi **O‘SOK semizlik va usiz kechgan bemorlarda kuzatiladigan shikoyatlar solishtirma taxlil** qilingan va quyidagi 1 jadvalda O‘SOK ning turli og‘irlik bosqichlarida aniqlangan shikoyatlarning qiyosiy natijalari keltirilgan.

1 jadval

O‘pkaning surunkali obstruktiv kasalligining turli og‘irlik bosqichlari semizlik va usiz kechgan bemorlarda kuzatiladigan shikoyatlarning solishtirma taxlili

Shikoyatlar		Oʻpkaning surunkali obstruktiv kasalligining bosqichlari								
		II		III		χ^2 va p (II-III)	IV		χ^2 va p (II-IV)	χ^2 va p (III-IV)
		OʻSOK + semizlik n=11	OʻSOK n=10	OʻSOK + semizlik n=39	OʻSOK n=13		OʻSOK + semizlik n=45	OʻSOK n=28		
Hansirash	Tez yurganda	3 (27,3%)	2 (20%)	5 (12,8%)	3 (23%)	$\chi^2=6,125$ p<0,05	8 (17,8%)	3 (10,7%)	$\chi^2=2,323$ p>0,05	$\chi^2=0,954$ p>0,05
	χ^2 va p	$\chi^2=1,363$; p>0,05		$\chi^2=3,388$; p>0,05			$\chi^2=1,976$; p>0,05			
	Oʻrtacha harakatda	3 (27,3%)	2 (20%)	14 (35,9%)	4 (30,7%)	$\chi^2=1,877$ p>0,05	16 (35,5%)	3 (10,7%)	$\chi^2=1,496$ p>0,05	$\chi^2=0,022$ p>0,05
	χ^2 va p	$\chi^2=1,363$; p>0,05		$\chi^2=0,561$; p>0,05			$\chi^2=16,262$; p<0,001			
	100 metr yurganda	1 (9,1%)	0	18 (46,1%)	2 (15,4%)	$\chi^2=34,332$ p<0,001	21 (46,6%)	13 (46,4%)	$\chi^2=35,813$ p<0,001	$\chi^2=0,020$ p>0,05
	χ^2 va p	$\chi^2=9,424$; p<0,01		$\chi^2=22,668$; p<0,001			$\chi^2=0,020$; p>0,05			
	Tinch holatda	1 (9,1%)	1 (10%)	4 (10,2%)	1 (7,7%)	$\chi^2=0,058$ p>0,05	9 (20%)	5 (17,8%)	$\chi^2=4,880$ p<0,05	$\chi^2=3,922$ p<0,05
	χ^2 va p	$\chi^2=0,058$; p>0,05		$\chi^2=0,244$; p>0,05			$\chi^2=0,130$; p>0,05			
Yoʻtal		8 (72,7%)	7 (70%)	36 (92,3%)	12 (92,3%)	$\chi^2=12,502$ p<0,001	41 (91,1%)	26 (92,8%)	$\chi^2=10,976$ p<0,001	$\chi^2=0,064$ p>0,05
χ^2 va p		$\chi^2=0,221$; p>0,05		$\chi^2=0$; p>0,05			$\chi^2=0,272$; p>0,05			
Terlash		3 (27,3%)	3 (30%)	10 (25,6%)	4 (30,7%)	$\chi^2=0,198$ p>0,05	9 (20%)	8 (28,6%)	$\chi^2=1,363$ p>0,05	$\chi^2=0,717$ p>0,05
χ^2 va p		$\chi^2=0,221$; p>0,05		$\chi^2=0,613$; p>0,05			$\chi^2=1,754$; p>0,05			

O‘SOK semizlik bilan komorbid kechganda hansirash kasallik og‘irlashishi bilan kuchaydi. Tez yurganda hansirash II, III va IV bosqichlarda mos ravishda 27,3%, 12,8% va 17,8% ni tashkil etdi (II–III bosqichlar, $p<0,05$). O‘rtacha jismoniy

harakatda hansirash IV bosqichda semizlik mavjud bemorlarda 35,5%, semizliksizlarda esa 10,7% bo'ldi ($p<0,001$). 100 metr yurishda hansirash III va IV bosqichlarda mos ravishda 46,1% va 46,6% ni tashkil etib, II–III hamda II–IV bosqichlar orasida ishonchli farq qayd etildi ($p<0,001$). Tinch holatda hansirash IV bosqichda 20% ni tashkil etdi ($p<0,05$). Yo'tal barcha bosqichlarda yuqori uchrab, II–III va II–IV bosqichlar orasida ishonchli ortdi ($p<0,001$). Terlash 20–30% hollarda kuzatilib, guruhlar orasida ishonchli farq aniqlanmadi ($p>0,05$).

Quyidagi 2 jadvalda kuzatuvimizdagi bemorlarda O'SOK ning turli klinik shakllari semizlik va usiz kechganda aniqlangan shikoyatlarni solishtirma tahlili keltirilgan.

2 jadval

O'pkaning surunkali obstruktiv kasalligining turli klinik shakllari semizlik va usiz kechgan bemorlarda kuzatiladigan shikoyatlar ko'rsatkichining solishtirma taxlili

Shikoyatlar		O‘pkaning surunkali obstruktiv kasalligining klinik shakllari								
		Bronxitik (1)		Emfizematoz (2)		χ^2 va p (12)	Aralash (3)		χ^2 va p (13)	χ^2 va p (23)
		O‘SOK + semizlik n=66	O‘SOK n=22	O‘SOK + semizlik n=11	O‘SOK n=11		O‘SOK + semizlik n=18	O‘SOK n=18		
Hansirash	Tez yurgan da	15 (20,8%)	3 (18,7)	0	4 (36,3)	$\chi^2=$ 23,464 p<0,00 1	5 (27,8%)	2 (11,1)	$\chi^2=$ 1,325 p>0,05	$\chi^2=$ 32,5 58 p<0,0 01
	χ^2 va p	$\chi^2=$ 0,125; p>0,05		$\chi^2=$ 43,902; p<0,001			$\chi^2=$ 9,205; p<0,01			
	O‘rtach a harakat da	22 (30,5%)	4 (25%)	5 (45,4%)	1 (9,1%)	$\chi^2=$ 4,800 p<0,05	10 (55,5%)	7 (38,9)	$\chi^2=$ 12,788 p<0,001	$\chi^2=$ 2,00 0 p>0,0 5
	χ^2 va p	$\chi^2=$ 0,627; p>0,05		$\chi^2=$ 32,877; p<0,001			$\chi^2=$ 5,138; p<0,05			
	100 metr yurgan da	33 (45,8%)	7 (43,7)	5 (45,4%)	3 (27,3)	$\chi^2=$ 0,020 p>0,05	3 (16,7%)	1 (5,5%)	$\chi^2=$ 19,488 p<0,001	$\chi^2=$ 18,3 26 p<0,0 01
	χ^2 va p	$\chi^2=$ 0,081; p>0,05		$\chi^2=$ 7,031; p<0,01			$\chi^2=$ 7,354; p<0,01			
	Tinch holatda	8 (11,1%)	1 (4,7%)	1 (9,1%)	1 (9,1%)	$\chi^2=$ 0,222 p>0,05	3 (16,7%)	1 (5,5%)	$\chi^2=$ 1,495 p>0,05	$\chi^2=$ 2,82 9 p>0, 05
	χ^2 va p	$\chi^2=$ 2,446; p>0,05		$\chi^2=$ 0; p>0,05			$\chi^2=$ 7,354; p<0,01			
Yo‘tal		66 (91,6%)	15 (93,7)	10 (90,9%)	11 (100%)	$\chi^2=$ 0,064 p>0,05	17 (94,4%)	18 (100%)	$\chi^2=$ 0,307 p>0,05	$\chi^2=$ 0,64 9 p>0, 05
χ^2 va p		$\chi^2=$ 0,307; p>0,05		$\chi^2=$ 9,424; p<0,01			$\chi^2=$ 6,186; p<0,05			
Terlash		17 (23,6%)	4 (25%)	3 (27,3%)	4 (36,3)	$\chi^2=$ 0,237 p>0,05	4 (22,2%)	3 (16,7)	$\chi^2=$ 0,113 p>0,05	$\chi^2=$ 0,67 6 p>0, 05
χ^2 va p		$\chi^2=$ 0,027; p>0,05		$\chi^2=$ 1,877; p>0,05			$\chi^2=$ 0,796; p>0,05			

O'SOK ning klinik shakllari tahlil qilinganda, tez yurganda hansirash emfizematoz shaklda eng ko'p kuzatilib, boshqa klinik shakllar orasida yuqori ishonchli farq aniqlandi ($p<0,001$).

O‘rtacha harakatda hansirash bronxitik shaklda 30,5%, emfizematoz shaklda 45,4% va aralash shaklda 55,5% holatlarda kuzatildi. Emfizematoz va aralash shakllarda semizlik fonida nafas yetishmovchiligi ishonchli darajada yuqori bo‘ldi ($p<0,05-0,001$). 100 metr yurishda hansirash bronxitik shaklda 45,8%, emfizematoz shaklda 45,4% holatlarda qayd etildi, aralash shaklda esa nisbatan kamroq — 16,7% kuzatildi. Bronxitik va aralash hamda emfizematoz va aralash shakllar orasida yuqori ishonchli farq aniqlandi ($p<0,001$). Tinch holatda hansirash asosan kasallik og‘irlashganda kuzatilib, klinik shakllar orasida ishonchli farq qayd etilmadi ($p>0,05$). Yo‘tal deyarli barcha bemorlarda uchradi va klinik shakllar orasida ishonchli farq kuzatilmadi.

Ikkinchi paragraf o‘pkaning surunkali obstruktiv kasalligi semizlik va usiz kechgan bemorlarda tashqi nafas faoliyatidagi o‘zgarishlarni solishtirma taxliliga bag‘ishlangan va unda kuzatuvdagi bemorlarda 3 jadvalda keltirilgan qator tashqi nafas faoliyati ko‘rsatkichlari guruhlararo baholangan.

3jadval

O‘pkaning surunkali obstruktiv kasalligining turli og‘irlik bosqichlari semizlik bilan va usiz kechgan bemorlarda tashqi nafas faoliyati ko‘rsatkichlarini solishtirma o‘rganish

Ko‘rsatkichlar	O‘pkaning surunkali obstruktiv kasalligining og‘irlik bosqichlari								
	II		III		p (II-III)	IV		P (II-IV)	p (III-IV)
	O‘SOK + semizlik n=11	O‘SOK n=10	O‘SOK + semizlik n=39	O‘SOK n=13		O‘SOK + semizlik n=45	O‘SOK n=28		
SpO ₂ , %	91,74±0,7	92,1±1,0	92,3±0,4	92,4±0,7	>0,05	92,4±0,41	92,9±0,5	>0,05	>0,05
P	>0,05		>0,05			>0,05			
BSJNChH, %	64,24±3,0	63,2±3,3	39,3±0,9	41,1±1,7	<0,001	22,7±0,63	18,4±1,2	<0,001	<0,001
P	>0,05		>0,05			<0,01			
BSJNChH / O‘TS, %	58,1±1,6	61±1,8	59,9±0,9	60,3±1,7	>0,05	60±0,78	61,2±1,1	>0,05	>0,05
P	>0,05		>0,05			>0,05			

Izoh (ushbu va keyingi jadvallarda): SpO₂ – kislorod bilan to‘yinganlik darajasi; BSJNChH – bir soniyadagi jadal nafas chiqarish hajmi; O‘TS – O‘pkaning tiriklik sig‘imi.

Jadvalda keltirilganidek, O‘SOK ning IV og‘irlik bosqichi semizlik bilan kechganda BSJNChX 22,7±0,63%, semizlik aniqlanmagan guruhda esa 18,4±1,2% ni tashkil etdi va guruhlar orasida ishonchli farq kuzatildi ($p<0,01$). Kasallikning og‘irlik bosqichlari kesimida II–IV va III–IV kuzatuvdagi bemorlar taqqoslanganda ham BSJNChX ning ishonchli pasayishi aniqlandi (har ikkala holatda $p<0,001$). Olingan natijalar kasallik semizlik bilan komorbidlikda kechganda bemor ko‘krak qafasi mexanikasining qo‘shimcha buzilishi va nafas olish mushaklariga yuklama ortishi oqibatida nafas chiqarish zaxiralari tezroq kamayib borishini tasdiqlaydi.

Biz kuzatuvimizda O‘SOK ning og‘irlik bosqichlari bilan bir qatorda uning klinik shakllari semizlik bilan komorbidlikda kechgan hollarda tashqi nafas

faoliyatining etakchi ko'rsatkichlari hisoblangan BSJNChH va uning O'TS ga nisbati baholandi. Olingan natijalar quyidagi 4 jadvalda keltirilgan.

4 jadval

O'pkanining surunkali obstruktiv kasalligining turli klinik shakllari semizlik bilan va usiz kechgan bemorlarda tashqi nafas faoliyati ko'rsatkichlarini solishtirma o'rganish

Ko'rsatkichlar	O'pkaning surunkali obstruktiv kasalligining klinik shakllari								
	Bronxitik (1)		Emfizematoz (2)		P (1-2)	Aralash (3)		P (1-3)	p (2-3)
	O'SOK + semizlik n=66	O'SOK n=22	O'SOK + semizlik n=11	O'SOK n=11		O'SOK + semizlik n=18	O'SOK n=18		
SpO ₂ , %	92,7±0,3	92,4±0,72	92,8±0,9	91,9±0,8	>0,05	92,44±0,64	91,4±0,5	>0,05	>0,05
P	>0,05		>0,05			>0,05			
BSJNChH, %	33,7±2,1	32,5±3,6	41,5±5,5	35,8±3,3	>0,05	37,2±3,2	27,2±3,8	>0,05	>0,05
P	>0,05		>0,05			>0,05			
BSJNChH / O'STS, %	59,9±0,63	58±1,5	61,6±0,02	59,4±1,8	<0,01	60,1±1,3	62,9±1,0	>0,05	>0,05
P	>0,05		>0,05			>0,05			

O'SOKning klinik shakllari bo'yicha tahlilda SpO₂ ko'rsatkichi bronxitik, emfizematoz va aralash shakllarda semizlik mavjud yoki yo'q holatlarda ishonchli farq qilmadi (p>0,05). BSJNCHX ham barcha klinik shakllarda semizlikka bog'liq ishonchli farq namoyon qilmadi (p>0,05). BSJNCHX/O'TS nisbati emfizematoz shaklda yuqoriroq bo'lib, bronxitik va emfizematoz shakllar orasida ishonchli farq aniqlandi (p<0,01). Bu emfizematoz shaklda giperinflyasiya va hayotiy sig'imning kamayishi bilan izohlanadi.

Uchinchi paragraf O'pkaning surunkali obstruktiv kasalligi semizlik va usiz kechgan bemorlarda biokimyoviy ko'rsatkichlarni solishtirma taxliliga bag'ishlangan.

Qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, birinchi navbatda buyrak funksional holatini baholashda qo'llaniladigan biokimyoviy markerlar ko'rsatkichlarini O'SOK ning turli og'irlik bosqichlarida kuzatiladigan o'zgarishlari taxlil qilindi (5jadval).

5 jadval

O'pkanining surunkali obstruktiv kasalligining turli og'irlik bosqichlari semizlik bilan va usiz kechganda buyrak funkstional holati

Ko'rsatkichlar	O'pkaning surunkali obstruktiv kasalligining og'irlik bosqichlari								
	II		III		P (II-III)	IV		P (II-IV)	p (III-IV)
	O'SOK + semizlik n=11	O'SOK n=10	O'SOK + semizlik n=39	O'SOK n=13		O'SOK + semizlik n=45	O'SOK n=28		
Sistatin C, mg/l	1,15±0,05	1,05±0,05	1,55±0,03	1,35±0,05	<0,001	2,05±0,04	1,8±0,04	<0,001	<0,001

P	>0,05		<0,01			<0,001			
Kreatinin, mkmol/l	99,9±4,2	92,01±3,8	118,0±2,9	108,0±4,4	<0,001	145,0±3,7	132,0±4,1	<0,001	<0,001
P	>0,05		>0,05			<0,05			
hKFT, ml/daq/1,73 m²	80,0±3,01	86,01±3,1	59,9±1,6	67,9±2,8	<0,001	41,9±1,5	48,0±1,8	<0,001	<0,001
P	>0,05		<0,05			<0,05			
β2 – mikroglobulin	2,59±0,1	2,2±0,1	3,4±0,09	2,9±0,1	<0,001	4,8±0,12	4,2±0,1	<0,001	<0,001

O'SOK og'irlashishi bilan buyrak funksional ko'rsatkichlarida salbiy o'zgarishlar kuzatildi va bu holat semizlik bilan komorbidlikda yanada yaqqol namoyon bo'ldi. Sistatin-S darajasi III va IV bosqichlarda semizlik mavjud bemorlarda ishonchli yuqori bo'lib, IV bosqichda $2,05 \pm 0,04$ mg/l ni tashkil qildi ($p < 0,001$). Kreatinin ham bordi, IV bosqichda semizlik mavjud bemorlarda $145,0 \pm 3,7$ mkmol/l bo'lib, semizliksiz guruhga nisbatan ishonchli yuqori qayd etildi ($p < 0,05$). hKFT esa aksincha pasayib bordi: III bosqichda $59,9 \pm 1,6$ ml/daq/1,73 m², IV bosqichda $41,9 \pm 1,5$ ml/daq/1,73 m² bo'lib, semizlik mavjud bemorlarda ishonchli past ko'rsatkichlar aniqlandi ($p < 0,05$).

β2-mikroglobulin darajasi II bosqichdanoq semizlik mavjud bemorlarda yuqori bo'lib, IV bosqichda $4,8 \pm 0,12$ mg/l gacha oshdi ($p < 0,001$). Bu buyrak kanalchalarida tubulointerstitsial shikastlanish ertaroq rivojlanishini ko'rsatdi.

Yuqoridagilar bilan bir qatorda O'SOK ning turli og'irlik bosqichlarida semizlikni va yallig'lanish jarayonlarini tashxislashda tavsiya etilgan markerlar solishtirma o'rganildi va uning natijalari 6jadvalda keltirilgan.

6 jadval



O'pkanining surunkali obstruktiv kasalligining turli og'irlik bosqichlari semizlik bilan va usiz kechganda adipokinlar va yallig'lanish stitokinlari ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	O'pkaning surunkali obstruktiv kasalligining og'irlik bosqichlari								
	II		III		P (II-III)	IV		P (II-IV)	p (III-IV)
	O'SOK + semizlik n=11	O'SOK n=10	O'SOK + semizlik n=39	O'SOK n=13		O'SOK +s emizlik n=45	O'SOK n=28		
Leptin, ng/ml	29,9±0,45	8,5±0,8	25,4±1,9	7,2±0,97	<0,05	24,3±0,61	6,5±0,43	<0,001	>0,05
P	<0,001		<0,001			<0,001			
Adiponektin, mkg/ml	4,8±0,2	8,5±0,3	5,4±0,11	10,9±0,3	<0,05	6,1±0,12	13,8±0,2	<0,001	<0,001
P	<0,001		<0,001			<0,001			
TNF-α	11,9±1,06	10,0±0,9	18,01±0,7	15,0±1,1	<0,001	26,0±0,8	21,9±0,9	<0,001	<0,001
P	>0,05		<0,05			<0,001			

IL 6	5,9±0,7	4,5±0,6	9,99±0,5 6	7,9±0,8	<0,001	16,0±0,75	13,0±0,7 5	<0,001	<0,00 1
P	>0,05		<0,05			<0,01			
S reaktiv oqsil	4,9±0,6	3,7±0,45	9,0±0,5	6,9±0,7	<0,001	14,9±0,74	11,9±0,7 5	<0,001	<0,00 1
P	>0,05		<0,05			<0,01			

Semizlik bilan komorbidlikda kechgan bemorlarda leptin darajasi barcha bosqichlarda ishonchli yuqori, adiponektin esa past bo'ldi ($p<0,001$). Shuningdek, TNF- α , IL-6 va S-reaktiv oqsil ko'rsatkichlari ham kasallik og'irlashishi bilan oshib bordi, ayniqsa III–IV bosqichlarda semizlik mavjud bemorlarda ishonchli yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi. Olingan natijalar O'SOK semizlik bilan kechganda surunkali tizimli yallig'lanish va metabolik nomutanosiblik kuchayishini ko'rsatdi. Bu holat endoteliy disfunktsiyasi, gipoksiya va ichki a'zolar, jumladan buyrak faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi patogenetik muhit shakllanishiga olib keladi.

